



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUROJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich	
Xolmurotov Sardor	
Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'lqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	262
Mirzanov Berdak Joldasbeviç	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI	268
A'zamxo'jayeva Nihol	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH	273
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	278
Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)	284
G.A. Norbo'tayeva	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	288
Charos G'ayratova	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	294
Джуманов, А.А.	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI.....	303
Bayitova Rohatoy Bahrom qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI	307
Xakimov Zafar Ibragimovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	314
Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	



SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar:

Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti katta o'qituvchisi,

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-6478-8293

Email: a.akbarov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan. Soliq ma'murchiligining zamonaviy yondashuvlari, raqamli transformatsiya jarayonlari, soliq yukining tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri hamda mavjud institutsional muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasidagi amaldagi holat statistik ma'lumotlar asosida baholanib, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ixtiyoriy soliq to'lov intizomini oshirish hamda riskka asoslangan soliq nazoratini kengaytirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, barqaror rivojlanish, soliq siyosati, raqamlashtirish, soliq intizomi, risklarni boshqarish, iqtisodiy xavfsizlik.

Abstract. This article examines the issues of ensuring the sustainable operation of business entities through the improvement of tax administration. Modern approaches to tax administration, digital transformation processes, the impact of the tax burden on entrepreneurial activities, and existing institutional challenges are analyzed from a scientific perspective. The current situation in the Republic of Uzbekistan is assessed based on statistical data and compared with international experience. The research findings provide practical recommendations aimed at strengthening the financial sustainability of business entities, enhancing voluntary tax compliance, and expanding the application of risk-based tax control mechanisms.

Keywords: tax administration, business entities, sustainable development, tax policy, digitalization, tax compliance, risk management, economic security.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы обеспечения устойчивой деятельности субъектов предпринимательства посредством совершенствования налогового администрирования. Научно проанализированы современные подходы к налоговому администрированию, процессы цифровой трансформации, влияние налоговой нагрузки на предпринимательскую деятельность, а также существующие институциональные проблемы. Текущее состояние в Республике Узбекистан оценено на основе статистических данных, проведён сравнительный анализ с международным опытом. По результатам исследования разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на укрепление финансовой устойчивости субъектов предпринимательства, повышение уровня добровольного соблюдения налоговых обязательств и расширение применения риск-ориентированного налогового контроля.

Ключевые слова: налоговое администрирование, субъекты предпринимательства, устойчивое развитие, налоговая политика, цифровизация, налоговая дисциплина, управление рисками, экономическая безопасность.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda iqtisodiy munosabatlarning murakkablashib borishi sharoitida tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, ichki bozorni raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash hamda iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlari uchun qulay institutsional muhit yaratish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash davlat boshqaruvining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda soliq ma'murchiligi alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq ma'murchiligi nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning muhim vositasi, balki davlat va biznes o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi strategik boshqaruv mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Samarali tashkil etilgan soliq ma'murchiligi tadbirkorlik subyektlarining ma'muriy xarajatlarini kamaytirish, soliq to'lovchilar uchun qulay xizmatlar ko'rsatish, ixtiyoriy soliq intizomini shakllantirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish imkonini beradi. Aksincha, ortiqcha byurokratik tartib-taomillar, murakkab hisobot tizimi, tez-tez o'zgarib turuvchi normativ-huquqiy hujjatlar va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda soliq boshqaruvining riskka asoslangan mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), blokcheyn texnologiyalari va elektron xizmatlardan foydalanish orqali soliq ma'murchiligi tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalar shakllanmoqda. Mazkur yondashuvlar soliq organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaffofligi, tezkorligi va ishonchligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha izchil institutsional islohotlar olib borilmoqda. Xususan, soliq tizimini liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy yuklamalarni qisqartirish, elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda soliq organlari faoliyatini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat soliq qo'mitasining axborot tizimlari modernizatsiya qilinib, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron deklaratsiya va masofaviy monitoring tizimlari joriy etildi. Shuningdek, Jahon banki ko'magida amalga oshirilayotgan "Tax Administration Reform Project" loyihasi doirasida soliq ma'murchiligi jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omilini minimallashtirish, risklarni baholash tizimini takomillashtirish va ixtiyoriy soliq to'lov intizomini kuchaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishiga ta'sir etayotgan ayrim ayrim takomillashtirishni talab qiluvchi masalalar mavjud. Jumladan, ayrim soliq tartib-taomillarining murakkabligi, normativ-huquqiy bazaning tez-tez o'zgarib turishi, raqamli savodxonlik darajasidagi tafovutlar, soliq xavflarini boshqarish tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi hamda tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan maslahat xizmatlarining cheklanganligi ushbu sohada dolzarb muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holatlar tadbirkorlik subyektlarining operatsion xarajatlarini oshirib, ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur muammolarning ilmiy va amaliy jihatlarini ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, amerikalik iqtisodchilar Richard Bird va Eric Zolt soliq ma'murchiligini davlat va biznes o'rtasidagi institutsional hamkorlikning muhim elementi sifatida talqin qilib, samarali soliq boshqaruvi iqtisodiy o'sish, investitsion jozibadorlik va tadbirkorlik faolligining asosiy determinantlaridan biri ekanligini asoslab berganlar [2]. Ularning fikricha, soliq ma'murchiligidagi shaffoflik va samaradorlik soliq to'lovchilarning ixtiyoriy rioya etish darajasini oshiradi hamda fiskal barqarorlikni mustahkamlaydi.

Britaniyalik olim Christopher Heady tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda soliqqa tortish tizimining soddaligi va barqarorligi kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etilgan [3]. Olimning ta'kidlashicha, murakkab soliq tizimi tranzaksion xarajatlarning ortishiga, tadbirkorlik faolligining pasayishiga va norasmiy iqtisodiyotning kengayishiga olib keladi.

Rossiyalik iqtisodchi Lidiya Goncharenko soliq ma'murchiligini davlat moliyaviy nazoratining ajralmas qismi sifatida baholab, raqamli texnologiyalarni joriy etish hisobiga biznes yuritish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ilmiy asoslab bergan [4]. Igor Mayburov esa riskka asoslangan soliq nazorati tizimi



tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ortiqcha aralashuvni kamaytirish, tekshiruvlar samaradorligini oshirish va davlat resurslaridan oqilona foydalanish imkonini berishini ta'kidlagan [5].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ushbu masala turli jihatlar bilan o'rganilgan. Jumladan, Q. Yo'ldoshev soliq ma'murchiligini raqamlashtirish yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishning muhim vositasi ekanligini asoslab bergan. A. Vahobov tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi fiskal muhitni iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida baholagan. Sh. G'afurov esa elektron platformalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish tadbirkorlarning tranzaksiyon xarajatlarini kamaytirib, soliq xizmatlari sifatini oshirishini ilmiy jihatdan asoslagan [6, 7, 8].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashning institutsional, raqamli va riskka asoslangan boshqaruv mexanizmlari yetarli darajada kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida soliq ma'murchiligini tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligi bilan o'zaro bog'liq holda baholashga qaratilgan ilmiy ishlanmalar yetarli emas.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashning mavjud muammolarini aniqlash, ularning iqtisodiy oqibatlarini baholash hamda zamonaviy raqamli va riskka asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [11]. Mazkur tadqiqot natijalari tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy asoslarni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va statistik guruhlash kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Soliq qo'mitasi, Jahon banki va xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligining bugungi holati, uning tadbirkorlik subyektlari faoliyati barqarorligiga ta'siri hamda mavjud institutsional muammolari iqtisodiy-statistik ma'lumotlar asosida kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakatda soliq tizimini modernizatsiya qilish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash borasida muhim natijalarga erishilgan bo'lsa-da, ayrim tizimli muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda.

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalasi ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, davlat budjetining daromad bazasini mustahkamlash va fiskal intizomni kuchaytirish zarurati mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish va ular zimmasidagi ma'muriy yuklamalarni optimallashtirish talab etiladi. Mazkur ikki yo'nalish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash samarali soliq ma'murchiligining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda soliq tushumlarining o'sishi mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning ijobiy natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron xizmatlar sonining ortishi, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish hamda soliqqa tortish bazasining kengayishi davlat budjeti daromadlarining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

1-jadval
O'zbekistonda soliq tushumlari dinamikasi¹

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	O'sish (%)
Davlat budjeti daromadlari (trln so'm)	165,9	199,9	20,3
Foyda solig'i (trln so'm)	28,4	36,7	29,1
Mol-mulk solig'i (trln so'm)	5,1	6,8	33,5
Aylanmadan olinadigan soliq (trln so'm)	2,4	2,8	17,6
Yer solig'i (trln so'm)	6,9	8,2	19,2

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda davlat budjeti daromadlari 199,9 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 20,3 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyoti va fiskal boshqaruv tizimining barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, foyda solig'i tushumlari 28,4 trln so'mdan 36,7 trln so'mga yetib, 29,1 foizga o'sganligi korxonalarining iqtisodiy faolligi va daromadlilik darajasining ortib borayotganligidan dalolat beradi. Mol-mulk solig'ida esa eng yuqori o'sish sur'ati, ya'ni 33,5 foizli o'sish qayd etilgan. Bu esa ko'chmas mulk obyektlarini hisobga olish va raqamlashtirish tizimlarining samaradorligi oshib borayotganligini ko'rsatadi. Biroq soliq tushumlarining ortishi har doim ham tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun qulay sharoit yaratilayotganligini anglatmaydi. Ayrim hollarda fiskal samaradorlikka erishish maqsadida qo'llanilayotgan ma'muriy mexanizmlar tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha vaqt va moliyaviy xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli soliq tushumlarining o'sishi bilan bir qatorda ma'muriy yuklamalarni qisqartirish va tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish ham dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy soliq ma'murchiligida asosiy e'tibor nazorat funksiyasidan ko'ra xizmat ko'rsatish funksiyasiga qaratilishi zarur. Chunki tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikka asoslangan boshqaruv tizimi ixtiyoriy soliq intizomini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida mamlakat iqtisodiyotida kichik biznesning tutgan o'rni ham alohida o'rganildi.

2-jadval
O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi²

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil
Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari (mingta)	1165	1212
YaIMdagi ulushi (%)	51,8	45,6
Eksportdagi ulushi (%)	27,1	46,8
Bandlikdagi ulushi (%)	74,0	74,8

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 1 million 212 mingga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan sezilarli o'sishni namoyon etmoqda. Mazkur holat mamlakatda tadbirkorlik muhitining rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, eksportdagi ulushning 27,1 foizdan 46,8 foizgacha ortishi kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorlardagi ishtiroki tobora kengayib borayotganligini anglatadi. Bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bandlik darajasining 74,8 foizga yetganligi esa kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Chunki mamlakatdagi har to'rt nafar iqtisodiy faol aholining uch nafari aynan ushbu sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shunga qaramasdan, YaIMdagi ulushning 51,8 foizdan 45,6 foizgacha pasayganligi alohida e'tibor talab etadi. Bu holat, bir tomondan, yirik sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, kichik biznesning ayrim institutsional to'siqlarga duch kelayotganligini ham ko'rsatishi mumkin.

Mazkur institutsional omillar orasida soliq ma'murchiligidagi mavjud muammolar muhim o'rin tutadi. Xususan, hisobot topshirishning murakkabligi, soliq qonunchiligidagi tez-tez o'zgarishlar, tadbirkorlarning raqamli ko'nikmalaridagi tafovutlar hamda maslahat xizmatlarining yetarli emasligi tadbirkorlik subyektlari barqarorlikka ta'sir etmoqda.

3-jadval
Soliq ma'murchiligidagi asosiy muammolar va ularning tadbirkorlikka ta'siri³

Muammo	Ta'sir darajasi	Natijasi
Soliq hisobotlarining murakkabligi	Yuqori	Vaqt xarajatlari ortadi
Tez-tez qonunchilik o'zgarishi	Yuqori	Noaniqlik yuzaga keladi
Raqamli savodxonlik darajasidagi tafovutlar	O'rta	Elektron xizmatlardan foydalanish kamayadi
Soliq risklarini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati	Yuqori	Nazorat jarayonlari ko'payishi mumkin
Konsultativ xizmatlarning yetarli emasligi	O'rta	Soliq hisobotlarida xatolarga yo'l qo'yish ehtimoli ortadi

2 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

3 Manba: Muallif ishlanmasi.



3-jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlari duch kelayotgan muammolarning aksariyati institutsional va tashkiliy xarakterga ega. Ayniqsa, soliq hisobotlarining murakkabligi va normativ-huquqiy bazaning tez-tez o'zgarib turishi tadbirkorlik faoliyatining uzoq muddatli rejalashtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi, ayniqsa, hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar uchun muhim e'tibor talab qiluvchi masalalardan biri hisoblanadi. Natijada elektron xizmatlardan foydalanish darajasi pasayib, qog'oz shaklidagi hujjatlar bilan ishlash davom etmoqda.

Bundan tashqari, soliq risklarini baholash tizimining yetarlicha takomillashmaganligi tekshiruvlar sonining ortishiga olib keladi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatidan vaqtincha chalg'ishiga sabab bo'ladi.

Konsultativ xizmatlarning yetarli emasligi esa soliq xatolarining ko'payishiga, ayrim hollarda esa moliyaviy moliyaviy majburiyatlarning yuzaga kelish ehtimolini oshirishi mumkin. Bu esa korxonalarining moliyaviy barqarorligiga muayyan ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda soliq ma'murchiligini takomillashtirish tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishining eng muhim institutsional omillaridan biri hisoblanadi.

Jahon banki ekspertlarining fikriga ko'ra, zamonaviy soliq ma'murchiligi quyidagi uchta asosiy tamoyilga asoslanishi lozim:

- xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan boshqaruv;
- riskka asoslangan nazorat;
- to'liq raqamlashtirish.

Mazkur tamoyillar davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli barqarorligi quyidagi omillarga bevosita bog'liq hisoblanadi: soliq yukining maqbulligi; hisobot topshirish tartib-taomillarining soddaligi; elektron xizmatlarning qulayligi va tezkorligi; soliq qonunchiligining barqarorligi; soliq organlari va biznes vakillari o'rtasidagi institutsional hamkorlikning rivojlanganligi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, elektron hisob-fakturalar, avtomatik deklaratsiya tizimlari, masofaviy monitoring va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish soliq ma'murchiligi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi soliq xavflarini oldindan prognozlash, norasmiy iqtisodiy operatsiyalarni aniqlash va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Natijada soliq organlarining nazorat faoliyati tanlab yondashuv xususiyatiga ega bo'lib, barcha tadbirkorlik subyektlariga nisbatan bir xil yondashuv o'rniga risk darajasiga asoslangan yondashuv qo'llaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan institutsional boshqaruv mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari va institutsional islohotlar soliq tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, mavjud masalalarni bosqichma-bosqich hal etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, barcha davlat organlari ma'lumotlarini integratsiyalashgan holda "Yagona tadbirkor profili" platformasini yaratish zarur. Ikkinchidan, risk indeksiga asoslangan soliq monitoringi tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Uchinchidan, sun'iy intellekt asosida soliq xavflarini prognozlash tizimini ishlab chiqish lozim. To'rtinchidan, kichik biznes subyektlari uchun avtomatik deklaratsiya tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Beshinchidan, professional soliq maslahatchilari institutini rivojlantirish zarur. Oltinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarning barqarorligini ta'minlash va ularning oldindan muhokama qilinishi amaliyotini kengaytirish lozim.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillar qatoriga soliq hisobotlarining murakkabligi, qonunchilikdagi tez-tez o'zgarishlar, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi, risklarni boshqarish mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurati va maslahat xizmatlarining cheklanganligi kiradi.



Kelgusida riskka asoslangan boshqaruv tizimi, sun'iy intellekt texnologiyalari, katta ma'lumotlar bazasi, avtomatlashtirilgan deklaratsiya tizimlari va integratsiyalashgan raqamli platformalarni keng joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. Uzbekistan Tax Administration Reform Project. Washington, DC: World Bank, 2024.
2. Bird R. M., Zolt E. M. Technology and Taxation in Developing Countries: From Hand to Mouse // National Tax Journal. 2008. Vol. 61, No. 4. P. 791–821.
3. Heady C. Tax Policy for Sustainable Development. Paris: OECD Publishing, 2019.
4. Goncharenko L. I. Nalogovoe administrirovanie. Moscow: KNORUS, 2020.
5. Mayburov I. A. Nalogi i nalogoblozhenie. Moscow: YUNITI-DANA, 2021.
6. Vahobov A. V. Davlat moliyasi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
7. Yo'ldoshev Q. Soliq tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy ahamiyati. Toshkent: Fan, 2022.
8. G'afurov Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'murchiligi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Statistika ma'lumotlar to'plami. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025.
10. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Soliq tushumlari va soliq ma'murchiligi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, 2025.
11. Akbarov A., Ahrorqulov J. Soliq instrumentlari orqali tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish // Muhandislik va iqtisodiyot. 2026. Vol. 4, No. 5.
12. Akbarov A. Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish // Green Economy and Development. 2025. Vol. 3, No. 4. P. 665–699.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>